



**BO‘LAJAK QO‘G‘IRCHOQ TEATRI AKTYORLARINI
TARBIYALASHDAGI ASOSIY JIHATLAR**

M.Muftillayeva

O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasи 1-kurs “Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi” ta’lim yo‘nalishi talabasi

F.Xodjayev

Ilmiy rahbar: “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasи dotsenti

Annotatsiya: maqolada qo‘g‘irchoq teatri san’atining o‘ziga xosligi, bo‘lajak qo‘g‘irchoq teatri aktyor shaxsini tarbiyalashdagi asosiy jihatlarda haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: san’at, teatr, aktyor, dramaturg, rejissor, qo‘l harakati, qo‘g‘irchoq, institut.

Teatr san’ati ichida qo‘g‘irchoq teatri san’ati ham alohida o‘ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Chunki, bu yerdagi ijodiy jarayonining yetakchilik roli qo‘g‘irchoqlar zimmasida bo‘ladi. Qo‘g‘irchoq aksar holda tomoshabinga ko‘rinmagan holda, shirma ortidagi qo‘g‘irchoqboz — aktyorlar tomonidan harakatlantiriladi.

Endilikda ushbu soha vakillari ham o‘z oldilariga yanada yuksak maqsadlarni qo‘ymoqliklari lozimdir. Sahnalashtirish uchun mo‘ljallangan pyesalar bugungi zamon talabiga javob bera oladigan bo‘lmoqligi kerak. Spektakllarni sahnalashtirishda esa albatta o‘zgacha yondashuvlarga ahamiyat qaratilishi ayni maqsadga muvofiqdir. Eng asosiysi spektakllarda rol ijro etadigan qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari professional mahoratga ega bo‘lishlari kerakligi bugun bu sohadagi mas’uliyatning har qachongidanda ko‘ra zalvorli ekanligini anglatadi. Sababi aktyorning professional mahorati spektaklning mazmun mohiyatini tomoshabinga yetkazib bera olishida asosiy omil sanaladi. Ayniqsa qo‘g‘irchoq spektakllarining



muxlislari yosh va jajji bolajonlardir. Ularni albatta aldab bo‘lmaydi. Qo‘g‘irchoq teatri bolani har tomonlama mukammal shaxs bo‘lib tarbiyalanishiga yordam beradi.

Qo‘g‘irchoqlarni jonlantirib ularning har biriga o‘ziga yarasha yurish, turish, harakat, fel atvor baxshida etadigan bu yuqorida ta’kidlaganimiz aktyorlardir. Qo‘g‘irchoq aktyorning harakatlari asosida uning turli kechinmalari bilan yashay boshlaydi. Boshqacha aytganda qo‘g‘irchoqlar aktyorlar his tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilgan holda o‘z olamini kashf etadi.

Har bir aktyor o‘z ishini chin dildan bajarishga intilsagina haqiqiy spektakl tomoshasini ijro eta oladi va tomoshabinlar e’tiborini torta oladi. Shu o‘rinda “Bizning asosiy maqsadimiz qo‘g‘irchoqni jonlantirish va unga hayot berish tomoshabinni bu jarayonga ishontirish, aktyor qo‘g‘irchoqboz qo‘g‘irchoqni jonlantiruvchi” - deya ta’kidlaydi dramaturg Ye.Speranskiy.

Bugungi kunda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida 1974-yilda tashkil topgan “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasida “Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi”, “Qo‘g‘irchoq teatr rejissyorligi”, “Qo‘g‘irchoqlar ishlab chiqarish texnologiyasi” ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha professional mahoratga ega bo‘lgan yosh aktyor, rejissyor va qo‘g‘irchoq usta-rassomlari tarbiyalanadilar.

“Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi” ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar F.Xodjayev, K.Jabbarova, dotsentlar V.Yusupova, A.Abduxalilov, katta o‘qituvchilar L.Usmanova, U.Musinovlar aktyorlik mahorati sirlarini o‘rgatib kelmoqdalar.

Men ham o‘z qiziqishim va harakatim bilan ushbu ta’lim yo‘nalishining talabasi degan maqomga erishdim. Men bir yillik talabalik faoliyatimda juda ko‘pgina bilimlarga aga bo‘lmoqdaman. Bo‘lg‘usi qo‘g‘irchoq teatri aktyorining boshqa teatr aktyorlariga nisbatan har jihatdan mahoratlari bo‘lishi kerakligini anglab bormoqdaman. Qo‘g‘irchoq teatri aktyori birinchi galda jonli planda aktyorlik



sirlarini o‘zidan o‘tkazgan holda o‘zlashtirishga harakat qilarkan. Birinchi kursda ham shuning uchun biz talabalarga K.S.Stanislavskiyning “Kechinma san’ati” maktabi asosida aktyorlik sirlari o‘rgatilmoqda. Qo‘g‘irchoq teatri san’atining dastlabki qadamlarini o‘rgatish uchun esa bizga “Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari” fani o‘qitilmoqda.

O‘quv jarayonida qo‘g‘irchoq teatri aktyori uchun zarur bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirar ekanman, aktyorning o‘z tanasiga hukmron bo‘lmoqligi, harakatchan, sahnada erkin tarzda harakatlarni nafislik asosida ifodalay olishi lozimligini tushunib yetmoqdamaman. “Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari” fanida esa qo‘g‘irchoq teatri aktyori uchun qo‘l plastikasini ahamiyati ne chog‘lik yuqori o‘rinda turishini darslar davomidagi mashqlarni bajarish asnosida egallahsga harakat qilmoqdamaman.

Taniqli qo‘g‘irchoq teatri aktyori Ye.Demmeni aytganidek, “Qo‘g‘irchoq qo‘g‘irchoqligicha qolib, keng insoniy his tuyg‘ularni yetkazib bera olishi mumkin”. Haqiqatdan ham qo‘g‘irchoq teatri san’ati mo‘jizakor san’atdir. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi Maryam Ashurova qo‘g‘irchoq teatr aktyorlari haqida shunday deydi, “Qo‘g‘irchoq teatr aktyorlari uchun eng zarur bo‘lgan yo‘nalish bu uning qo‘l harakatchanligidir”. Demak qo‘g‘irchoq teatr aktyorlarining qo‘l harakatchanligi cheksiz imkoniyatga ega bo‘lishi kerak.

Men talabalik faoliyatimdagи qo‘g‘irchoq teatri san’atiga qadam qo‘ygan bo‘lajak mutaxassis sifatida shuni anglab yetmoqdamanki, san’atning chek-chegarasi yo‘q ekan. Ayniqsa qo‘g‘irchoq teatri san’atining. Barcha aktyorlik san’ati turlari kabi qo‘g‘irchoq teatri aktyori boshqa turdagи aktyorlardan farqli ravishda o‘z tanasi va qo‘l harakatining qiroliga aylanmog‘i lozim ekan. Mashqlar bilan bir qatorda esa tinimsiz badiiy hamda mutaxassislik adabiyotlarini o‘qib o‘zlashtirishi, qo‘g‘irchoq teatri spektakllarini tomosha qilmoqligi, undagi qo‘g‘irchoqning aktyor talqinida qanchalik to‘g‘ri harakat qilayotganini kuzatishi,



san'atning boshqa turlari bo'yicha ham bilimlarga ega bo'lmoqligi kerakligini tushunmoqdaman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurova M.X. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Innovatsiya –Ziyo, 2021. – 210 bet.
2. Королев М. Искусство театра кукол. – Л., Искусство, 1973. – С. 112.
3. Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Talqin, 2006. – 208 b.
4. Сперанский Е. Актёр театра кукол. – М.: ВТО, 1965. – С. 73.